XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHI
Q A R O R I

150100, Farg‘ona sh., Alisher Navoiy k., 15-uy, tel: (73) 244-07-35, e-mail: info@ferghana.uz, www.ferghana.uz

2023 - yil 28 - dekabr VI-63-125-11-0-K/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi 02-1160-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10353-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yilgi daromadlari **5 399,0 mlrd.so‘m** va xarajatlari **7 342,6 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **1 943,6 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar **687,8 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonun bilan quyidagilar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va

Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagilar moliyalashtiriladi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlashga, shuningdek sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash hamda ta’mirlash ishlariga doir xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

Quyidagi mahalliy byudjetdan moliyalashtirib kelinayotgan xarajatlar:

kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqalarini va moddiy yordamlarni to‘lash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tizim tashkilotlarini (bolalar va mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari) saqlash xarajatlari;

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarini, shuningdek suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarini saqlash xarajatlari;

O‘zini-o‘zi boshqarish organlari (mahallalar)ni nodavlat notijorat tashkilot va byudjetdan mablag‘ oluvchi sifatida saqlash xarajatlari respublika byudjetidan moliyalashtirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Farg‘ona viloyatining 2024-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga;

Farg‘ona viloyatining viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

viloyatning viloyat byudjetidan 2024-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

tumanlar va shaharlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-ilovaga;

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

Viloyat byudjetidan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlaring chegaraviy hajmi 6-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining 2024-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 9 200,0 mln. so‘m etib hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 9-ilovaga hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2024-yil uchun 27,1 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda:

shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

viloyat, tuman va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin;

mahalliy byudjetlarni ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarning zaxira jamg‘armalari miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi nazarda tutilsin.

9. Qonun bilan xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat byudjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividendlar;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini sotishdan tushgan tushumlar;

boshqa tushumlar (ushbu bandning “V” va “G” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan byudjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar byudjetlariga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo hamda tamaki uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar hamda boshqa tushumlar *(faqat 3 450 950 daromad kodi bo‘yicha)* shahar va tumanlar byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalarning viloyat byudjetiga 70 foizi shahar va tumanlar mahalliy byudjetiga

30 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) Farg‘ona shahrida 15 foizi hamda boshqa barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar viloyat hamda shahar va tumanlarda teng ulushlarda 50 foiz;

agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat mahalliy byudjetiga o‘tkaziladi.

10. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

11. Belgilansinki:

barcha tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar tomonidan 2024-yilda byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

12. Viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (A.Alimov), viloyat soliq

boshqarmasi (M.Mamatxonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi (A.Soliyev) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi (E.Eshonov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini

“E-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzsinlar hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishini ta’minlasinlar.

16. Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Tursunov) va viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

17. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ikramov), Adliya boshqarmasi (A.Buriyev) viloyatda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

18. Viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Qodirov) tuman shahar hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709 sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga

muvofiq mahalliy byudjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

19. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari:

Byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

20. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi

02-1160-sonli xati bilan yuborilgan xulosadan kelib chiqib:

Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.To‘xtaqulov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish dasturini amalga oshirish uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘lari hisobidan kompyuter texnikalari sotib olish uchun xarajatlar smetasida mablag‘ nazarda tutish;

Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq 2024-yil 1-yanvardan boshlab markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati xodimlarining bazaviy tarif stavka miqdorlari 1,5 baravarga oshirilganligi sababli shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tuzishda ajratilgan byudjet mablag‘lari doirasida zarur mablag‘larni yo‘naltirishni inobatga olinishini;

Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Tursunov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PF-101-sonli Farmoniga muvofiq suv xo‘jaligi tashkilotlarini moliyalashtirish darajasi o‘zgarganligini inobatga olgan holda xarajatlar smetasini shakllantirilishini ta’minlash;

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) bilan birgalikda byudjet oldidagi soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha boqimanda qarzdorliklarni undirish va byudjet daromadlarini oshirish hamda xarajatlarni maqbullashtirish hisobiga respublika byudjetidan ajratilgan uzoq muddatli ssudalarni qaytarish bo‘yicha Xalq deputatlari viloyat kengashiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan yig‘ilish (15.11.2023y, 36-son) bayonining 4.3-bandiga asosan 2024-yildan boshlab mahalliy byudjetlar va rezident yuridik shaxslarga byudjet ssudalari va byudjet hisobidan qoplanadigan kredit mablag‘larini ajratishni cheklash, zarur hollarda, ssudalarni mahalliy byudjetlarga xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlari asosida ajratish amaliyoti joriy etilsin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-dekabrdagi “Mahalla byudjet”

tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-sonli qaroriga asosan 2024-yildan barcha hududlarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i uchun belgilanadigan prognoz ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib 10 foizini “Mahalla byudjeti” jamg‘armalarini shakllantirishga yo‘naltirish ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

23. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Davlat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda Farg‘ona viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjeti loyihasida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlasinlar.

24. Belgilansinki, viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar dastlabki tarzda ushbu tadbirlarni umumlashtiruvchi viloyat komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi, komissiya xulosasi xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etib boriladi.

25. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Sirojiddinov, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) bilan birgalikda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi viloyat komissiyasi ishini samarali tashkil etib borsin hamda viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari, jumladan daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismidan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritilishini ta’minlasin.

26. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (S.Jo‘rayev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

27. Tuman (shahar) hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar hamda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar har chorakda byudjet ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash hamda byudjet shakllanishida va ijrosida jamoatchilik ishtirokini faollashtirish yuzasidan hududlarda muhokamalar va tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish choralarini ko‘rsin.

28. Barcha tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksi”ning 28-moddasida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

29. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 15-yanvar kuniga qadar byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

- o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning jamlanma xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, jamlanma daromadlar va xarajatlar, daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlar to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

davriy jamlanma moliyaviy hisobotlar to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun shaxsan mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

30. Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga:

mahalliy hokimliklar, mas’ul boshqarma va tashkilotlar tomonidan 2024-yil uchun belgilangan byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlanishi, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishlari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli bo‘yicha deputatlik nazoratini o‘rnatsin.

Bunda amalga oshirayotgan ishlarini monitoring qilgan holda o‘rganib borish, natijalarini mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyalarida muhokama qilish, soha mas’ullari va tuman (shahar) hokimlarning mahalliy Kengash sessiyalarida axborotlarni tinglab borish tavsiya etilsin.

31. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (D.Djurayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (I.Halimbekov), Davlat soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

32. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

33. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

34. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi

o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengash raisi



X. Bozarov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyatining 2024 yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2025-2026 yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2025 yil	2026 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	77 838,1	89 148,9	104 420,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	5,4-5,7	6,0	6,3
3.	Ist’yemol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	8-10	7,8-8,5	5,5-7,5
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	7,0	7,0	7,5
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	4,1	4,1	4,2
6.	Jami xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sish sur’ati, foizda	17,3	9,7	10,0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatining viloyat mahalliy byudjetining daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**3 211 462 200,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	475 867 000,0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 347 530 000,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aksiz solig‘i, jami	**507 748 800,0**
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*507 748 800,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	123 452 500,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	151 375 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	16 770 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	51 347 500,0
12	Davlat boji	255 919 000,0
13	Jarimalar	114 696 400,0
14	Davlat mulkini xususiylashtirish	14 300 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	903 000,0
16	Yig‘imlar	151 553 000,0
17	Boshqa tushumlar	

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun Farg‘ona viloyatining viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning chekl angan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdorlar
Xarajatlar miqdori, Jami		**5 155 131 453,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 160 396 311,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**577 975 000,0**
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	**2 416 760 142,0**
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**821 712 939,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**361 312 939,0**
	shundan:	
	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi va tasarrufidagi muassasalarni saqlash xarajatlari	351 891 120,0
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	590 766,0
	Professional ta’lim muassasalari	8 831 053,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	460 400 000,0
2.	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi**	**242 551 024,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**242 551 024,0**
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 017 222,0
	Professional ta’lim muassasalari	984 252,0
	Texnikumlar	7 842 220,0
	Kasb-hunar maktablari	232 707 330,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Viloyat soliq boshqarmasi**	**31 468 397,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**31 468 397,0**
	Viloyat soliq boshqarmasini saqlash xarajatlari	27 654 714,0
	Sud boshqaruvchilariga haq to‘lash xarajatlari	2 080 601,0
	Farg‘ona soliq texnikumi	1 733 082,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**1 088 660 901,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**994 825 201,0**
	shundan:	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	3 884 749,0
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi viloyat muassasalari	978 065 102,0
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi	2 907 235,0

	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	1 962 485,0
	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	125 188,0
	Texnikumlar	7 880 442,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	93 835 700,0
5.	**Madaniyat boshqarmasi**	**71 152 687,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**71 152 687,0**
	shundan:	
	Madaniyat boshqarmasi markaziy apparati	1 304 373,0
	Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi madaniyat muassasalari	40 567 540,0
	Maqom va san’at maktablari	29 280 774,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Farg‘ona viloyati bo‘limi**	**4 653 390,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 653 390,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	**73 758 257,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**73 758 257,0**
	shundan	
	Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi markaziy apparati	4 124 086,0
	Viloyat sport muassasalari	40 692 693,0
	Professional ta’lim muassasalari (Olimpiya va paraolimpiya markazi)	25 349 448,0
	Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	3 592 030,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdorlar
8.	**Qurilish va Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**18 072 896,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**18 072 896,0**
	shundan:	
	Qurilish va Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi	13 153 339,0
	Qurilish sohasi malakali mutaxasislarini tayyorlash markazi xarajatlari	4 044 988,0
	Texnikumlar	874 569,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**22 045 625,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**22 045 625,0**
	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlarini saqlash	17 286 619,0
	Yer tuzish va monitoring vazifalari yuklatilgan xodimlarni saqlash xarajatlari	3 137 703,0
	Texnikumlar	1 621 303,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**81 942 921,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar (tizim tashkilotlari bilan)	**74 411 421,0**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	**36 850 000,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	7 531 500,0
11.	**O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi**	**6 820 856,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 820 856,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Transport boshqarmasi**	**10 736 848,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 736 848,0**
	shundan:	
	Transport boshqarmasini saqlash xarajatilari	1 605 829,0
	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	8 309 808,0
	Texnikumlar	821 211,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13.	**Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**13 679 763,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**13 679 763,0**
	Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasini saqlash xarajatlari	9 540 652,0
	Viloyat Turizm boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 878 471,0
	Texnikumlar	2 260 640,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**Viloyati Investisiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**12 282 322,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**12 282 322,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15.	**Veterinariya boshqarmasi**	**6 262 941,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 262 941,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16.	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi**	**1 837 565,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 837 565,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17.	**Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashi kotibiyati**	**5 444 155,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 444 155,0**
	shundan:	
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat	4 905 432,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**8 016 312,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	**8 016 312,0**
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasini saqlash xarajatilari	4 967 489,0
	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining viloyat boshqarmasi	1 662 286,0
	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi	1 386 537,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19.	**O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligining viloyat hududiy bo‘limi**	**396 747,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**396 747,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdorlar
20.	**Viloyat adliya boshqarmasi**	**17 672 921,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**17 672 921,0**
	shundan:	
	Viloyat adliya boshqarmasini saqlash xarajatlari	4 076 515,0
	FHDYO bo‘limlari saqlash xarajatlari	4 258 826,0
	Yuridik xizmatlar markazlari	4 002 206,0
	Arxiv muassasalarini saqlash xarajatlari	4 468 636,0
	Texnikumlar	866 738,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21.	**Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 468 295 310,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**51 535 168,0**
	shundan:	
	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasini saqlash xarajatlari	8 600 286,0
	Xodimlar malakasini oshirish xarajatlari	250 000,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	5 000 000,0
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	4 000 000,0
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	16 895 750,0
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi xodimlarini malaka oshirish xarajatlari	130 000,0
	Farg‘ona viloyati bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi	13 577 507,0
	G‘aznachilik organlari xodimlarini malaka oshirish xarajatlari	150 000,0
	Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 931 625,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	2 416 760 142,0
22.	**Davlat hokimiyat organlari (Farg‘ona viloyati hokimligi)**	**83 748 211,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**67 540 411,0**
	shundan:	
	Viloyat hokimligini saqlash xarajatlari	8 801 688,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	147 405,0
	Zaxira jamg‘armasi	27 112 587,0
	Qabullar uyi	4 976 765,0
	Xalq qabulxonasi	10 413 634,0
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	866 723,0
	Axborot kutubxona markazi	3 105 509,0
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	2 795 100,0
	Issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	9 321 000,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	16 207 800,0
23.	**O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi**	**1 633 298,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 633 298,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24.	**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspesiyasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi**	**9 381 904,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 381 904,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25.	**Saylov komissisiyalari**	**75 616,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**75 616,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdorlar
26.	**O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi**	**19 504 011,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 504 011,0**
	shundan:	
	Farg‘ona viloyati Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmati	1 894 126,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27.	**Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi**	**1 578 449,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 578 449,0**
	Texnikumlar	824 477,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28.	**Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**188 991,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**188 991,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
29.	**Boshqa tashkilotlar**	**31 556 196,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**31 556 196,0**
	shundan:	
	Mudofaa hamda viloyat hokimligi maxsus bazasini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar	6 804 768,0
	Viloyat Ichki ishlar boshqarmasining mahalliy byudjetdagi 200 ta shtat birligini saqlash xarajatlari	24 751 428,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

** Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi xarajatlari tarkibiga shahar va tumanlar mahalliy mahalliy byudjetlariga o‘tkazib beriladigan tartibga soluvchi transfertlar kiritilgan.*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024 yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me’yorlari

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarg a realizatsiya qilishdagi aksiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jarimalar	Boshqa tushumlar (Faqat 3 450 950 daromad kodi bo‘yicha)*
1	Farg‘ona shahar	100	15	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
2	Qo‘qon shahar	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
3	Quvasoy shahar	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
4	Margilon shahar	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
5	Oltiariq tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
6	Bog‘dod tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
7	Buvayda tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
8	Beshariq tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
9	Quva tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
10	Uchko‘prik tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
11	Rishton tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100

12	So‘x tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
13	Toshloq tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
14	O‘zbekiston tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
15	Farg‘ona tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
16	Dang‘ara tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
17	Furqat tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
18	Yozyovon tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
19	Qo‘shtepa tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100

* 3 450 950 daromad kodidan tashqari barcha boshqa tushumlarni hisobga oluvchi daromad kodlari bo‘yicha kelib tushgan tushumlar viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq miqdorda yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori jami	Shundan, aksiz solig‘i tushumlaridan ajratiladigan mablag‘lar
	JAMI	**2 416 760 142**	**687 794 488**
	shundan		
1	Farg‘ona shahar	66 658 719	54 563 749
2	Qo‘qon shahar	148 273 369	52 490 842
3	Quvasoy shahar	58 591 933	17 131 476
4	Margilon shahar	154 534 322	42 623 111
5	Oltiariq tumani	116 820 423	38 682 872
6	Bog‘dod tumani	156 837 547	39 419 526
7	Buvayda tumani	148 690 402	41 817 932
8	Beshariq tumani	149 139 989	41 115 542
9	Quva tumani	182 770 174	46 768 929
10	Uchko‘prik tumani	128 448 152	40 892 833
11	Rishton tumani	154 966 501	36 712 752
12	So‘x tumani	122 075 054	14 150 600
13	Toshloq tumani	88 930 393	37 072 514
14	O‘zbekiston tumani	142 663 190	39 847 813
15	Farg‘ona tumani	123 402 226	37 500 800
16	Dang‘ara tumani	125 289 613	29 928 688
17	Furqat tumani	121 741 209	21 517 133
18	Yozyovon tumani	107 573 294	20 266 536
19	Qo‘shtepa tumani	119 353 632	35 290 840

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI		**2 187 505 800,0**	**4 604 265 942,0**
1	Farg‘ona shahar	338 387 000,0	405 045 719,0
2	Qo‘qon shahar	269 924 700,0	418 198 069,0
3	Quvasoy shahar	97 724 300,0	156 316 233,0
4	Margilon shahar	134 643 800,0	289 178 122,0
5	Oltiariq tumani	110 021 100,0	226 841 523,0
6	Bog‘dod tumani	91 847 900,0	248 685 447,0
7	Buvayda tumani	93 924 100,0	242 614 502,0
8	Beshariq tumani	96 965 000,0	246 104 989,0
9	Quva tumani	116 667 000,0	299 437 174,0
10	Uchko‘prik tumani	108 919 000,0	237 367 152,0
11	Rishton tumani	89 809 400,0	244 775 901,0
12	So‘x tumani	7 756 700,0	129 831 754,0
13	Toshloq tumani	114 352 400,0	203 282 793,0
14	O‘zbekiston tumani	109 530 000,0	252 193 190,0
15	Farg‘ona tumani	126 103 100,0	249 505 326,0
16	Dang‘ara tumani	85 763 300,0	211 052 913,0
17	Furqat tumani	48 730 700,0	170 471 909,0
18	Yozyovon tumani	54 798 500,0	162 371 794,0
19	Qo‘shtepa tumani	91 637 800,0	210 991 432,0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024 yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**30 000 000,0**
	shundan	
1	Viloyat byudjeti	9 200 000,0
2	Farg‘ona shahar	2 904 000,0
3	Qo‘qon shahar	2 410 000,0
4	Quvasoy shahar	900 000,0
5	Margilon shahar	1 825 000,0
6	Oltiariq tumani	1 067 000,0
7	Bog‘dod tumani	945 000,0
8	Buvayda tumani	864 000,0
9	Beshariq tumani	910 000,0
10	Quva tumani	1 190 000,0
11	Uchko‘prik tumani	882 000,0
12	Rishton tumani	934 000,0
13	So‘x tumani	284 000,0
14	Toshloq tumani	960 000,0
15	O‘zbekiston tumani	920 000,0
16	Farg‘ona tumani	994 000,0
17	Dang‘ara tumani	836 000,0
18	Furqat tumani	540 000,0
19	Yozyovon tumani	550 000,0
20	Qo‘shtepa tumani	885 000,0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (ming.so‘m)
1	Farg‘ona shahar	1,50	55 500,0
2	Qo‘qon shahar	1,50	55 500,0
3	Quvasoy shahar	1,00	37 000,0
4	Margilon shahar	1,05	38 850,0
5	Oltiariq tumani	0,90	33 300,0
6	Bog‘dod tumani	0,90	33 300,0
7	Buvayda tumani	0,85	31 450,0
8	Beshariq tumani	0,90	33 300,0
9	Quva tumani	1,05	38 850,0
10	Uchko‘prik tumani	0,90	33 300,0
11	Rishton tumani	0,85	31 450,0
12	So‘x tumani	0,85	31 450,0
13	Toshloq tumani	0,90	33 300,0
14	O‘zbekiston tumani	0,90	33 300,0
15	Farg‘ona tumani	0,90	33 300,0
16	Dang‘ara tumani	0,90	33 300,0
17	Furqat tumani	0,85	31 450,0
18	Yozyovon tumani	0,85	31 450,0
19	Qo‘shtepa tumani	0,85	31 450,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
9-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (so‘m)
1	Farg‘ona shahar	1,45	483,0
2	Qo‘qon shahar	1,45	483,0
3	Quvasoy shahar	1,05	350,0
4	Margilon shahar	1,45	483,0
5	Oltiariq tumani	1,05	350,0
6	Bog‘dod tumani	0,90	300,0
7	Buvayda tumani	0,90	300,0
8	Beshariq tumani	1,05	350,0
9	Quva tumani	1,10	366,0
10	Uchko‘prik tumani	0,90	300,0
11	Rishton tumani	0,90	300,0
12	So‘x tumani	0,80	266,0
13	Toshloq tumani	1,05	350,0
14	O‘zbekiston tumani	0,95	316,0
15	Farg‘ona tumani	0,95	316,0
16	Dang‘ara tumani	0,95	316,0
17	Furqat tumani	0,85	283,0
18	Yozyovon tumani	0,80	266,0
19	Qo‘shtepa tumani	0,90	300,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-63-125-11-0-K/23-son qaroriga
10-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi

koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan)	Minimal miqdor 2024 yil uchun (ming.so‘m)
1	Oltiariq tumani	0,85	1 020,0
2	Bog‘dod tumani	0,85	1 020,0
3	Buvayda tumani	0,85	1 020,0
4	Beshariq tumani	0,85	1 020,0
5	Quva tumani	0,85	1 020,0
6	Uchko‘prik tumani	0,85	1 020,0
7	Rishton tumani	0,85	1 020,0
8	So‘x tumani	0,70	840,0
9	Toshloq tumani	0,85	1 020,0
10	O‘zbekiston tumani	0,85	1 020,0
11	Farg‘ona tumani	0,85	1 020,0
12	Dang‘ara tumani	0,85	1 020,0
13	Furqat tumani	0,75	900,0
14	Yozyovon tumani	0,75	900,0
15	Qo‘shtepa tumani	0,80	960,0